

## O'ZBEK XALQIGA XOS SAXOVATPESHALIKNING MA'NAVIY MEZONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14421645>

**Badalbayeva Irodaxon Habibulayevna**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining "Gumanitar fanlar"  
kafedrasi assistenti. Andijon, O'zbekiston*

### **Annotasiya**

Mazkur maqolada O'zbek millatiga xos saxovatpeshalikning ma'naviy mezonlari xalqimiz ongiga bu an'analar azal-azaldan singdirilgan bo'lib, xayru-saxovat, muxtojlar va yetimlarga yaxshilik qilish, kechirimlilik, yaxshi qo'shnichilik, bemorlarni ziyorat qilish, ilm olishga harakat qilish va ularning mohiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

### **Kalit so'zlar**

hazrati inson, saxovat, odamiylik, mehr-oqibat, savob, siylai-rahm, ma'naviy ziynat, jadid, xonlik, amirlik, sahiylik, urf-odat, rasm-rusum, "G'alaba bog'i", Dukchi eshon, "Ilhaq" rostgo'ylik, halollik, samimiylilik, sodiqlik, sabr, kamtarlik, nomus, ilg'or fikr, g'amxo'rlik, himmat, ko'mak.

## **ДУХОВНЫЕ КРИТЕРИИ ЩЕДРОСТИ СВОЙСТВЕННЫЕ УЗБЕКСКОМУ НАРОДУ**

**Бадалбаева Иродахон Хабибулаевна**

*ассистент кафедры «Гуманитарных» наук Андижанского института сельского хозяйства*

### **Аннотация**

в данной статье рассматриваются критерии щедрости, присущие узбекскому народу сформировавшиеся испокон веков в сознании нашего народа прививаются нравственные качества как: доброта, щедрость, правдивость, честность, искренность, верность, терпение, забота о сирот, о старших и о больных.

### **Ключевые**

гуманность, человечность, щедрость, доброта, благое дело, забота о близких, духовная красота, джадиды, ханство, эмират, благородство,

традиция, обычай, "Сад Победы", Дукчи Эшон, "Ильхак", честность, искренность, верность, терпение, смиление, честь, дальновидность, забота, преданность делу, поддержка.

## **SPIRITUAL CRITERIA OF GENEROSITY TYPICAL TO THE UZBEK PEOPLE**

**Badalbaeva Irodakhon Habibulaevna**

*assistant of the department of "Humanities" Andijan Institute of Agriculture and Agro-Technology  
behimro0307@gmail.com*

### **Annotation**

This article examines the criteria of generosity inherent in the Uzbek people, formed since time immemorial in the consciousness of our people, moral qualities such as: kindness, generosity, truthfulness, honesty, sincerity, loyalty, patience, care for orphans, the elderly and the sick are instilled.

### **Key words**

humanity, humaneness, generosity, kindness, good deed, care for loved ones, spiritual beauty, Jadids, khanate, emirate, nobility, tradition, custom, "Victory Garden", Dukchi Eshon, "Ilhak", honesty, sincerity, loyalty, patience, humility, honor, foresight, care, dedication, support.

Insoniyat tarixida yaratilgan rivoyatlar, hikoyalar, afsonalarda, xalq donishmandligi hamda hikmatlarda Yaratganning marhamati ila inson mo'jizasi borki, butun mavjudotlar shohi, hayot bulog'idir. Chunki, "Hazrati inson" ning qalbiga mehr-muhabbat va sahovat tuyg'ulari jo etilgan.

Ne baxtdirki, shu tuyg'ularni kuylash bizlarga nasib etmis! Odamiylik, mehr-oqibat, himmatu marhamat, musaffo sevgiga sadoqat, ahil-payvandlik, millatlar, elatlarni birlashtiruvchi saxovatning metodologik jihatlari hisoblanib, inson mehr-muhabbati va saxovati! Olam olam bo'lib, zamon zamon bo'lib, hech kimdan nonini, insoniyatdan qonini, musofirdan xonadonini ayamagan, yuragining qo'ri ila uyining to'rini bergen, yetim-yesirning boshini silab, norasida go'daklarni qalb olovi ila ardoqlab, beminnat bag'riga olgan insoniy jasorat - mehr-muhabbat va saxovat tuyg'ulari ijtimoiy-falsafiy qarashlar orqali yangi sahifalarda tavsiflanadi.

O'zbek xalqi ongiga bu an'analar azal-azaldan singdirilgan bo'lib, xayru-sahovat, muxtojlar va yetimlarga yaxshilik qilish, kechirimlilik, yaxshi

qo'shnichilik, bemorlarni ziyyarat qilish, ilm olishga harakat qilish va yoshlarni ilm olishga chorlash, jamiyatda tinchlik-xotirjamlikni ta'minlashda faol bo'lish har bir vaqtida amalga oshirilib kelinmoqda.

"Savob ishni har kim, har kuni qilishi lozim" – degan naql ostida o'zgalarga yaxshilik ulashgan har bir insonda haqiqiy insoniylik sifati namoyon bo'lib boradi"<sup>30</sup>. Xayr-sahovat, mehr-oqibat, siylai-rahm kabi ulug' fazilatlar doimo o'z sohibiga ma'naviy ziynat bo'lib kelgan. Bunday olivjanob xislatlarni o'zida mujassam eta olgan insongina el-yurtning og'irini yengil qila oladigan fazilatli shaxs hisoblangan. Yetim-yesir, beva-bechora, nogironlar, musofirlarga muruvvat ko'rsatish, sidqidildan beg'araz yordam berish kabi fazilatlar qon-qonimizga singib ketgan. Ulamolar aytganidek, aqlning qadri odob bilan oshadi, boylik qadri – saxovat bilan. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, demakki, do'stlarning ko'payishiga imkon yaratuvchi ijtimoiy-ma'naviy xususiyat bo'lib, inson uchun saxovatdan yaxshiroq va azizroq sifat yo'q.

Xayr-ehsonning yaxshisi bu qiyinchilik va muhtojlik vaqtida qilinganidir. Hukumatimiz tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehr-sahovat" ko'krak nishoni<sup>31</sup> ta'sis etilishi, bu boradagi islohotlarning davlat darajasiga ko'tarilganligindan dalolat beradi.

Bugungi tinch va osuda hayotimizning qadriga etish kabi insoniy fazilatlarni mustahkamlash, odamlarni bir-biriga yaxshilik qilishga, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi kishilar ham sahovatli insonlardir.

Jumladan, XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda chor Rossiyasining siyosiy tazyiqi bilan mahalliy xonliklar va amirlik hokimiyati chekhanish bilan birga, rus va Yevropa sarmoyador vakillarining mahalliy hudud imkoniyatlaridan foydalanishiga sharoit yaratildi. Bunday munosabat mahalliy xalq talab va ehtiyojlarining chekhanishiga, udum va an'analarning, tarixiy e'tiqod va diniy dunyoqarashning toptalishiga xizmat qildi. Xalqimizning saxovatpesha jadid o'g'onlari esa, millat farzandlarini o'z hisoblaridan savodli qilish yo'lida katta harakatlarni boshlagan edilar.

Poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj olib, milliy ma'rifat targ'iboti, madrasa va maktablar faoliyati cheklandi. Ruscha atama va mazmunga ega bo'lgan yevropacha urf-odatni ifodalagan rasm-rusumlar, shuningdek, din ulamolarini xristianlik ta'limotiga yetaklash kabi jirkanch voqe'liklar avj oldi. O'sha davr

<sup>30</sup>Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга курамиз. Т., "Ўзбекистон". 2017 йил. 10 бет.

<sup>31</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мехр-саҳоват" кўқрак нишони таъсис этиши тўғрисидаги фармони. ПФ-5999-сон. 2020 й. 26 май.

ijtimoiy muhiti Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamlangan "Xitobnama" asarida tasvirlab berilgan edi<sup>32</sup>.

Milliy ozodlik yo'lida taraqqiyat parvar xalq vakillari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamo va ziyorolar avvalambor, chorizmga qarshi kurashni, xalq ongida erk va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish – ijtimoiy, siyosiy hamda ma'rifiy jabhalardan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakatining falsafiy g'oyalari ana shunday ijtimoiy-tarixiy sharoitda Turkiston o'lkasida iqtisodiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyot uchun qulay muhitni vujudga kelishi uchun xizmat qildi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi Turkiston o'lkasini o'rta asrdagi feodalizm sarqitiga xos bo'lgan qoloqlik va diniy aqidaparastlikdan ozod qilish, shariat qoidalarini tubdan isloh etish, xalqni ma'rifatli qilib ularni zamonaviy bilimlar egasi sifatida Turkiston Muhtoriyati, Buxoro va Xivada konstitutsiyaga asoslangan demokratik respublika davlat boshqaruvini o'rnatib, erkin jamiyat barpo etish, barqaror milliy pul birligini joriy etish yo'lida aziz jonlarini fido etdilar.

"Har bir millatning ulamosi, ahli qalami millat uchun so'ylar, yozar va xavoiji milliya va zamoniyani o'z millat mansubasiga bildirarlar. Zamona ag'niyolari o'z millatlarini zamoniycha kerakligi yo'linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamoniy mакtablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun hara kat etarlar. Hukumatni o'rta va oliy maktablariga o'qiydurg'on o'z millat bolalariga ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablariga berub, o'z xarajatlari ila o'qitadurlar"<sup>33</sup>.

Ikkinci jahon urishi oqibatida yurtimizga ko'chirib keltirilgan oilalarga, harbiy gospitallarga, fashistlardan ozod qilingan hududlarning och-nahor aholisi bilan baham ko'rgan, jonajon farzandlarini Vatan ozodligi yo'lida boy bergan xalqimizga tarix guvohdir. Shuningdek, oz'bek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'n minglab kishilarga boshipana berib, mehribonlik ko'rsatib, jang bo'layotgan hududlardan ko'chirilgan bir million shaxslarga boshipana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta'minlab, minglab yetim bolalarni o'zbek oilalari o'z qaramog'iga olishlari, farzandlaridan kam ko'rmay tarbiyalashi yuksak saxovat na'munasidir.

Bu davrda insonparvarlikning yuksak na'munasi sifatida, turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka olib, ta'lim-tarbiya bergan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova jasorati va qahramonligini tarix unutmaydi. Ular boshipanasiz qolgan, turli millat vakillari bo'lgan 14 bola va

<sup>32</sup> Мұхаммал Али Эшон "Хитобнома" танланған асарлари "Янги аср авлоди" 1999 й. Б. 21.

<sup>33</sup> Махмудхўда Бехбудий "Одоб аҳлоқ китоби". "Янги аср авлоди" Б.15-16

urushdan so'ng yana 3 bolani o'z tarbiyalariga olishgan. Ular sharafiga poytaxt markazida majmua qayta tiklandi.

Shomahmudovlar chinakam insonparvarlikni ulug'lovchi oila sifatida katta jasorat, qahramonlik ko'rsatishdi. Yozuvchi Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romanini<sup>34</sup>, "O'zbekfilm" kinostudiyasida rejissyor Shuhrat Abbosovning "Sen yetim emassan"<sup>35</sup> badiiy filmi yaratilishiga ularning hayoti asos bo'lgan. Bu oila sharafiga 1982 yilning 26 mayida Toshkentda Xalqlar do'stligi monumenti ochildi (haykaltaroshlar D.Ryabichev, me'morlar L.Adamov, S.Odilov). 2008 yilning 12 aprelida bu yodgorlik shaharning chekka hududiga ko'chirib yuborilgan. 2017 yilning 1 mayida esa yodgorlik Yakkasaroy tumanidagi Do'stlik bog'iga joylashtirilgan. Bugun esa mazkur haykal avvalgi joyida qo'nim topdi. O'sha vaqtida xizmatlari yuqori baholanib Shomahmudovlar oilasi yashaydigan ko'cha oilaning nomi bilan atalgan edi.

Yozuvchi Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romanida Shoahmad va uning rafiqasi Bahri ona bosh qahramonlar Mahkam aka va Mehrinisa obrazlari orqali gavdalantiradi. Muallif bu romanda real hayotiy voqeiliklarga asoslangan Hazrati insonlarning ulug' fazilatlarini ko'rsatib beradi.

Romanda insoniylik, mehr-muhabbat, saxovatpeshalik tuyg'ulari g'oyat katta xayotiy xodisa ekanligi kuylanadi.

Shoahmad ota "Hurmat belgisi" ordeniga loyiq ko'rilgan, Bahri ona esa "Qahramon ona"<sup>36</sup> deb e'tirof etilgan.

Urush yillarida o'zbek oilalari jami 4,5 ming nafardan ziyod yetim bolalarni asrab olishgan. Shomahmudovlar singari samarqandlik Samadovlar 13, F.Qosimovalar esa 10 nafar bolani parvarishlab o'stinganlar.

Bu esa Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "...bag'rikenglik va hamjihatlik, sahovat va oljanoblik fazilatlarining yorqin namunasi bo'lib qoladi"<sup>37</sup>.

Shafqatsiz urush tufayli o'zining navqiron 5 o'g'lidan ayrılgan Zulfiya Zokirovaning hayotini olaylik, "Yovuz urush tufayli ayaning to'rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo'lib qoldi. Uning o'zi esa bir umr motamda yashadi. Lekin hech qachon umidsizlikka tushmadi, o'g'llarining so'nmas xotirasi, yorug' kunlar yodi bilan, kelinlari, nabiralarining hayoti, orzu-umidlari bilan yashadi"<sup>38</sup>.

<sup>34</sup>Рахмат Файзий. Ҳазроти инсон. Т., "Адабиёт ва санъат", 1975 йил.

<sup>35</sup>Рахмат Файзий. Сен етим эмассан. Т., "Адабиёт ва санъат", 1979 йил.

<sup>36</sup> Хайназаров Б. Иккинчи Жаҳон уруши даврида Ўзбекистонга эвакуация жараёни тарихидан. "Иккинчи Жаҳон урушида фашизм устидан қоҳонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг кўшган хиссаси". Илмий-амалий конференция материалларидан. Т., 2020 йил 28 апрель

<sup>37</sup> Мирзиёев Ш.М. "Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир". Т., "Ўзбекистон" II том. 2018 йил 321 бет.

<sup>38</sup> Ш.Мирзиёевнинг 9-май "Хотира ва Қадрлаш куни" даги нутқидан. 2019 йил 9 май.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan "G'alaba bog'i"da Zulfiya Zokirova timsoldida o'zbek onalarining saxovatpeshaligi, sabr-bardoshi, matonati, mujassam bo'lgan "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasi o'rnatildi.

"O'zbekkino" Milliy agentligi buyurtmasiga asosan "Ezgu film" kinostudiyasi tomonidan "Ilhaq" badiiy filmi tasvirga olindi. Bu o'zbek onasi barchamizga matonat, iroda va sahovat timsoli bo'lib qolajak. Ya'ni Prezidentmiz ta'biri bilan aytganda, "...o'zbek ayolining, o'zbek halqining haqiqiy sahovati, jasorati va matonati! Mana, sevgi va sadoqat madhiyasi, uning yengilmas kuch qudrati! Mana yoshlarimiz, farzandlarimiz kimdan na'muna va o'rnak olishlari kerak!"<sup>39</sup>.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. Т., "Ўзбекистон". 2017 йил. 10 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мехр-саҳоват" кўкрак нишони тъисис этиши тўғрисидаги фармони. ПФ-5999-сон. 2020 й. 26 май.
3. Мухаммал Али Эшон "Хитобнома" танланган асарлари "Янги аср авлоди" 1999 й. Б 21.
4. Маҳмудхўда Беҳбудий "Одоб аҳлоқ китоби". "Янги аср авлоди" Б.15-16
5. Раҳмат Файзий. Ҳазрати инсон. Т., "Адабиёт ва санъат", 1975 йил.
6. Раҳмат Файзий. Сен етим эмассан. Т., "Адабиёт ва санъат", 1979 йил.
7. Хайназаров Б. Иккинчи Жаҳон уруши даврида Ўзбекистонга эвакуация жараёни тарихидан. "Иккинчи Жаҳон урушида фашизм устидан қоҳонилган ғалабага Ўзбекистон ҳалқининг қўшган хиссаси". Илмий-амалий конференция материалларидан. Т., 2020 йил 28 апрель
8. Мирзиёев Ш.М. "Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир". Т., "Ўзбекистон" II том. 2018 йил 321 бет.
9. Ш.Мирзиёевнинг Иккинчи Жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигига бағишланган "Хотира ва Қадрлаш куни"даги сўзлаган нутқидан. 2019 йил 9 май.

<sup>39</sup> Ш.Мирзиёевнинг Иккинчи Жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигига бағишланган "Хотира ва Қадрлаш куни"даги сўзлаган нутқидан. 2019 йил 9 май.

10. Abdukayumovna, K. M. (2023). RAISING THE INNOVATIVE THINKING OF STUDENT-YOUTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 585-590.
11. ... & Nozima, M. (2023). Axborot xavfsizligini ta'minlashda yoshlar ongiga singdirishda. *Science Promotion*, 1(1), 67-77.
12. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekistonda innovatsion faoliyatida fan va ta'limning rivojlanishi. *Science Promotion*, 1(1), 106-117.
13. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekiston integratsiya jarayonida yoshlarning innovatsion ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati. *Science Promotion*, 1(1), 78-91.
14. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda oilada manaviy tafakkurni yuksaltirish. *Science Promotion*, 1(1), 92-105.
15. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Globallashuv jarayonida internet tarixi, o'rni va ahamiyati. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 238-247.
16. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXS, INDIVID VA INDIVUDUALLIKNING MOHIYATI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 195-202.
17. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). MEHR-MURUVVAT VA MEHRIBONLIK QADRIYATI BU-SAXOVAT. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 175-184.
18. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). O'ZBEKİSTONDA TURİZMNI RIVOJLANTIRISH O'ZIGA XOS JİHATLARI VA IMKONİYATLARI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 166-174.
19. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). FARG'ONA VODİYSIDA TURİZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY, İJTİMOIY VA SIYOSIY OMILLARI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 185-193.
20. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). KIBER MAKONDA DINIY

ETIQOD TARGIBOTINING IJTIMOIY XAVFI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 223-237.

21. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Zardushtiylik dinida dunyo qarama-qarshilikdan iborat degan ta'limotida ilgari surilgan g 'oyalar. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 203-213.
22. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). Yangilangan Konstitutsiya-baxtimizning huquqiy kafolati. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 203-213.
23. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). СИФАТЛИ ТАЪЛИМ СИФАТЛИ ҲАЁТГА ЙЎЛ. *Science Promotion*, 1(1), 143-153.
24. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Oлий таълимда ўқитиши сифатини такомиллаштиришда Ўзбекистон Республикаси Президенти фармон ва қарорларининг аҳамияти. *Science Promotion*, 1(1), 130-142.
25. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). АХБОРОТ КАММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ ЎРНИ. *Science Promotion*, 1(1), 118-129.
26. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОРУРНИНГ МАҶНАВИЙ ЖАСОРАТИНИ АВЛОДЛАР ҚАЛБИДА ШАКЛАНТИРИШ. *Science Promotion*, 1(1), 154-165.
27. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). MA'NAVİYAT INSONNI RUHAN POKLAYDI. *Science Promotion*, 1(1), 55-66.
28. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). UCHINCHI RENESSANS KELAJAK POYDEVORI. *Science Promotion*, 1(1), 45-54.
29. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЗИЁРАТ МАСКАНЛАРИ. *Science Promotion*, 1(1), 35-44.
30. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ЎҚИТИЛИШНИ ЯХШИЛАШГА ДОИР

МЕЙЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 278-285.

31. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА МИЛЛИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАРТИБГА СОЛИНИШИ. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 248-256.

32. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). ҚАДИМГИ ФАРФОНА (ДАВАН) ДАВЛАТИ ТАРИХИГА ОИД БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 257-269.

33. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Fuqarolarning huquq va erkinliklari qonun himoyasidadir. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 311-319.

34. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). TA'LIM VA TARBIYA MA'NAVIY-AXLOQ POYDEVORIDIR. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 320-328.

35. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР БҮЙИЧА ЯНГИ АВЛОД КАДРЛАРИНИНГ ТАЙЁРЛАНИШИДА ҲАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 270-277.

36. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TASIRI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 329-338.

37. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., & Muhammadraxim, K. (2023). EKOLOGIK MUAMMOLARNI OLDINI OLİSHDA INSON MA'NAVIYAT VA MADANYATINING O'RNI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 339-349.

38. Nasibjon, K., Badalboyeva, I., Muyassar, K., Muhammadraxim, K., Tursunov, B. N., Tursonov, B., ... & Nozima, M. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТИШ ЭҲТИЁЖЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 298-310.

39. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Ўзбекистон таълим муассасаларида чет тили ўқитилиши тарихига бир назар. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 286-297.

40. Юсупов, Р. М. (2020). «БАРОҚХОН» ВА «МИР АРАБ» МАДРАСАЛАРИНИНИГ ДИНИЙ МУАССАСАЛАРИГА КАДИРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАРИХИДАН ЛАВХАЛАР (1940-1960 й. й.). *Life Sciences and Agriculture*, (2-2), 200-203.
41. Юсупов, Р. М. (2020). EXCERPTS FROM THE HISTORY OF TRAINING FOR THE RELIGIOUS INSTITUTIONS OF "BARAKKHAN" AND "MIR ARAB" MADRASSAS (1940-1960 years). *Life Sciences and Agriculture*, 2(2), 200-203.
42. Валихонова, Г. К. (2020). МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИДА МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗЛАР ФАОЛИЯТИ (Уйғур миллий маданий маркази фаолияти тарихи мисолида). *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(1).
43. Валиханова, Г. К. (2020). РУС САЙЁХЛАРИ ВА ҲАРБИЙЛАРИНИНГШАРҚИЙ ТУРКИСТОНДАГИВАЗИЯЛТА МУНОСАБАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 2).
44. Валиханова, Г. К. (2014). ИЗ ИСТОРИИ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ УЙГУРОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 83-85.
45. Валиханова, Г. К. (2014). ИЗ ИСТОРИИ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ УЙГУРОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 83-85.
46. Валиханова, Г. К. (2014). ИЗ ИСТОРИИ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ УЙГУРОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 83-85.
47. Каримова, М. Б. (2012). Об обряде "Бибисешанба", проводимом с участием женщин. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (11), 76-78.
48. Валиханова, Г. К. (2012). НЕКОТОРЫЕ РИТУАЛЫ УЙГУРОВ, ЖИВУЩИХ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (11), 70-72.
49. Madina, K., Sultonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). O 'ZBEKISTONDAGI PROFESSIONAL TALIM TIZIMIGA YOSHLARNI QAMROVINI YANADA OSHIRISHNING USLUBLARI. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 585-593.
50. Madina, K., Sultonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 594-605.

51. Mo'ydinov, X., Ahmedova, U., Madina, K., Sultonov, T. A., & ZG'offorov, T. Y. (2023). Kitob mutolasi manaviyatimiz xazinasi. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 422-430.